



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



XOQONIY SHIRVONIY QASIDALARDA RAMZLAR BADIYATI

Jumayeva Kamola

TDSHU tadqiqotchisi

kamolajumaeva7@gmail.com

Annotatsiya: Xoqoniy Shirvoniyning qasidalari o‘zining sermazmunligi, ayniqsa ramzlarga boyligi bilan alohida ahamiyatga ega. Shoirning qasidalari tadqiqotga tortilar ekan, ularda razmlarning munosabati alohida mavqega ega ekanligi ko‘zga tashlandi. Shuning uchun ushbu maqolada Xoqoniy Shirvoniy qasidalaridagi ramzlar tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Xoqoniy Shirvoniy, devon, qasida, ramz, timsol, badiyyat.

Fors tilida ijod etgan adiblar o‘zlarining benazir ijodi bilan fors adabiyotining umumjahon xalqlari orasida yoyilishiga, asrlar davomida bu adabiyotning gullab yashanab, rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘sghanlar. Forsiyzabon shoirlar ijodidagi jozibadorlikni ta’minlab turgan jihatlardan biri ramzlar bo‘lgan. Shu jumladan, Xoqoniy Shirvoniyning ijodi, ayniqsa uning qasidalari bundan xoli emas.

Xoqoniy Shirvoniy qasidalaridagi ramzlarni tadqiq etish nafaqat ularning badiiy ifodasi, tasvir usuli, balki mazmun mohiyati, g‘oyaviy ahamiyati va shoir ma’naviy olamini tushunishda yordam berdi.

Shoir dunyoqarashining takomillashishida diniy va dunyoviy ilmlarning ta’siri katta bo‘lganligi ko‘zga tashlandi. Qasidalar tarjima va tahlil qilish chog‘ida shoir bu ilmlarning ta’sirini yetarli darajada ko‘rsatib berganligi kuzatildi. Qasidalarda diniy shaxslar hayoti, ular bilan bog‘liq hikoya va voqealarga talmeh va tazmin qilgan. Bu orqali shoir qalb kechinmalarini ta’sirli ifoda etib qolmay, qasidaning mazmunini boyitganligi ma’lum bo‘ldi.

Xoqoniy Shirvoniy qasidalarida nomi ko‘p zikr etilgan va o‘ziga xos ramziy ma’no kashf etgan diniy timsollardan biri Yusuf (a.s)dir. U Qur’oni Karimda ismi keltirilgan payg‘ambarlardan biri bo‘lib, Yaqub (a.s)ning o‘g‘li va Qur’ondagi bir sura uning ismi bilan nomlangan. Mumtoz adabiyotda Yusuf obrazining alohida o‘rni bor. Xoqoniy Shirvoniy qasidalarini yaqindan o‘rganilib, tarjima qilinar ekan Yusuf uch xil razmda namoyon bo‘lganligi kuzatildi. Birinchi, qasidalarda Yusuf timsoli - go‘zallik ramzida namoyon bo‘lgan. Jumladan,

١٧ . حسن یوسف را حسد برند مشتی ناسپاس قول احمد را خطأ خوانند جمعی ناسرا⁸³

17. Yusuf husniga hasad qildilar noshukur mushtumzo ‘rlar,
Ahmad so‘zini xato o‘qidilar tamom ila dashnom etdilar

⁸³ خاقانی شروانی. دیوان. – تهران، ۱۳۷۵. – ص. ۱۴.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



Yoki:

٦٩. مريم طبعش نکاح یسف وصف تو بست⁸⁴
مریمی با حسن یوسف نی چو یوسف کمبها

69. *Bog'ladi sening vasfing Maryam (pok) ta'bli Yusuf nikohi,
Maryam Yusuf (go'zal) husni ila Yusufdek kambaho emas.*

Yuqorida keltirilgan birinchi bayt “ – در مباحثات و نکوهش حسودان Faxriya va hasadchilarning ayblash” ikkinchi bayt esa “ این قصيدة را ارتجala در مدح شروان شاه منوچهر و صفت شکارگاه او و بنای بند باقلانی سروده است Bu qasida Shirvonshoh Manuchehr madhida va ov maydoni va Boqoloniy inshootining qurilishi haqida yozilgan” deb nomlangan qasidalardan olingen. Har ikki baytda kelgan Yusuf timsoli – go'zallik ramzida kelgan.

Ikkinci, qasidalarda Yusuf – ayriliq, hijron ramzida gavdalangan. Bunday paytda “ballo, choh, kun” istilohlari Yusuf nomi bilan birga qo'llanilgan va shoir “Yusuf balosi, Yusuf chohi, Yusuf kuni” birliklarini keltirish orqali ayriliq va hijron kuniga murojaat etagani kuzatildi. Jumladan,

از نفاق برادران برخاست⁸⁵

۴۵. ای برادر بلای یوسف نیز

45. *Ey birodar Yusuf balosi ham
Aka-ukalar nifoqidan paydo bo'ldi.*

Yoki:

٣٦. همه شب های غم آبشن روز طرب است⁸⁶
یوسف روز، به چاه شب یلدا بیند

36. *Qayg'uli tunlarining hammasi(da) homilador kun xursanddir,
Yusuf kuni(ni), Yaldo tunning chohiga ko'rsinlar.*

Yuqoridagi birinchi bayt – در شکایت از زندان “ Zindondan shikoyat”; ikkinchi bayt این قصيدة را حرز الحجاز خوانند در کعبه علیا انشاء کرده و بر بالین مقدس پیغمبر اکرم صلوات الله علیه در یثرب “ به پایان آورده ” nomli qasidadan olindi. Har ikki baytda qalamga olingen Yusuf obrazi hijron va ayriliq ramzini ifodalagan. Yusuf balosi va Yusuf kuni birikmalari shoirning asosiy fikrini namoyon etuvchi vositalar bo'lgan.

Uchinchi, Xoqoniy Shirvoniq qasidalarida Yusuf – oshiq ramzida namoyon bo'lgan. Jumladan,

هست به بازار دل یوسف تو کم بجه⁸⁷

۵. هست به معیار عشق گوهر تو کم عیار

⁸⁴ خاقانی شروانی. دیوان. – تهران، ۱۳۷۵. – ص. ۲۱.

⁸⁵ O'sha manba. – B. 49.

⁸⁶ O'sha manba. – B. 61.

⁸⁷ خاقانی شروانی. دیوان. – تهران، ۱۳۷۵. – ص. ۲۶.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



*Ishqning o‘lchovi bor gavharingning sifati past,
Ko‘ngil bozorida Yusufing kam bahodir.*

Yuqoridagi bayt “در صفت عشق و مدح شیخ الاسلام ناصر الدین ابراهیم“ *Ishq xususida va Shayxulislom Nosiriddin Ibrohim vasfida*” deb nomlangan qasidadan olindi. Ushbu baytda Yusuf – oshiq ramzida kelgan. Baytda shoirning badiiy mahorati o‘ziga xos noodatiy va go‘zal tarzda ifodalangan. Shoir nazdida ishqning o‘lchovi bor va ko‘ngil bozorida Yusufdek oshiq bo‘lsada kam, u o‘z bahosida emas. Bunday badiiy tasvir orqali shoir oshiqlikning imkoniyati va darajasini oshirib, oshiq bo‘lsang oshiqliging Yusuf oshiqlidan-da oshsin degan g‘oyani ilgari surmoqda.

Muso (a.s)ning nomi Qur’onda ham, hadisda ham zikr etilgan, u qissalari ibrat sifatida namoyon bo‘lgan payg‘ambarlardan biridir. Xoqoniy Shirvoni qasidalarida Muso afsonaviy Xizr nomi bilan birga kelgani tez-tez ko‘zga tashlanadi. Xizr - diniy – mifologik shaxslardan biri. Afsonalarga ko‘ra u tiriklik suvini izlab topgan va uni ichib boqiy hayotga yetishgan⁸⁸. Tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqul “Xizr haqidagi qarashlar turlicha, ba’zi olimlar oshiqlarning homiysi, ...boshqalari qiyin va mushkul holatlarda yordam beruvchi homiy, xaloskor siymosida yozma adabiyotdan o‘rin olgan”⁸⁹ deydi. Xoqoniy Shirvoni qasidalarda Muso va Xizr obrazini birga keltirish orqali ular orasida kechgan voqeaga ishora qiladi. Xususan,

١٦. بیین که کوكبہ عمر خضروار گذشت تو باز مانده چو موسى به تیه خوف و رجا⁹⁰

*16. O‘tib ketdi Hizrdek umr yulduzi, ko‘rginki,
Xavfu-rijo sahrosida Musodek yana qolgansan.*

Ushbu bayt – در پند و اندرز و مدح پیامبر بزرگوار – Pand-u nasihat va buyuk payg‘ambar madhida” nomli qasidadan olindi. Baytda Qur’oni karimning “Kahf” surasi 60-82 oyatlarida tilga olingen Muso alayhisalom va Ollohnning solih bir bandasi haqidagi qissa qishora qilinmoqda. Bu qissa yigirma uch oyatdan iborat bo‘lib, Imom Buxoriyning “Jome’ as-sahih” kitobida kelgan rivoyatlarda, solih banda Xizr alayhissalom ekanligi aytilgan. Ushbu voqeanning qisqacha tafsiloti quyidagicha: Kunlarning birida Muso (a.s)dan “Ollohnning eng bilag‘on quli kimdir?” – deb so‘radilar. Muso (a.s) o‘ylab o‘tirmasdan “Menman” deb javob berdilar. Bu o‘rinda Muso (a.s) “Olloh buni bilar” deyishi kerak edi. Shunda Olloh taolo vahiy yuborib, Muso (a.s) qalbida “Ey, Muso, mening sendan ham bilimdon qulim bor” – degan so‘zlarni joylaydi. Biroz Fursat o‘tib, Olloh va Muso (a.s) o‘rtasida suhbat bo‘lgach Muso (a.s) “O‘sha bilimdon kishi kim? Uni qanday izlab

⁸⁸ Ҳаққұл И. Ўзбек тасаввуф шеъриятининг шаклланиши ва тарақиёти (ғоявийлик, издошлиқ, образлар олами): Дис. ... Филол. фан.док. – Тошкент, 1995. – В. 194.

⁸⁹ Ҳаққұл И. Ўзбек тасаввуф шеъриятининг шаклланиши ва тарақиёти (ғоявийлик, издошлиқ, образлар олами): Дис. ... Филол. фан.док. – Тошкент, 1995. – В. 195.

⁹⁰ خاقانی شروانی. دیوان. - تهران، ۱۳۷۵. - ص. ۵.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'ÖYALAR



topaman?” deganida Olloh u zot bilan qanday uchrashishini aytadi. Muso (a.s) Xizr bilan uchrashib undan o‘zi bilmagan bilmlarni o‘rganishi adabiyotda ibratli voqealiga sifatida kirdi. Xoqoniy Shirvoni ham yuqoridagi baytda xuddi shu voqeaga ishora qilgan. Yuqoridagi bayda Muso (a.s) shaxsi bilmaganni izlab topuvchi va o‘rganuvchi kishi ramzida, Xizr esa o‘zi bilganlarini o‘rgatuvchi murabbiy va mushkulini oson qiluvchi xaloskor ramzida gavdalangan.

— در ستایش ابوالمظفر جلال الدین شروان شاه “Abulmuzaffar Jaloliddin Shirvonshoh madhida” nomli qasidada shoir mamduhni madh etar ekan baxt-iqboling Xizr suvidan ichgan, ya’ni tiriklik va abadiylik suvidan ichgan deya mubolag‘a qiladi. Jumladan,

دل داده نهنگ خنجران را⁹¹

۲۶. اقبال تو کاب خضر خورده است

*26. Iqboling Xizr suvidan ichgandir,
Ko ‘ngil bergen nahang xanjarlarga.*

Sulaymon (a.s) Dovud (a.s)ning o‘g‘li bo‘lib, u ham podshoh, ham payg‘ambar bo‘lgan. Olloh ularning har ikkisiga payg‘ambarlik ato etgan. Xoqoniy Shirvoni qasidalarida Sulaymon obrazi - oqil va adolatli shoh ramzida kelgan.

من هدھى کە عقل بە من افخار كرد⁹²

۲۸. بلقیس بانوان و سلیمان شہ اخستان

*28. Bonu (sulton xonim) Bilqis va shoh Axsatan Sulaymondir,
Men bir hudhud ki aql men-la iftixor etdi.*

Yuqoridagi bayt — در ستایش صفوة الدين بانوی شروان شاه اخستان — Axsatan Shirvonshoh ayoli Safvatdin madhida” deb nomlangan qasidadan olindi. Baytda Qur’oni karimning “Naml” (chumoli) surasiga ishora qilinmoqda. Ushbu surada Sulaymon (a.s) va Sabo mamlakatining malikasi Bilqis orasidagi voqealar tasvirlanadi. Baytda Xoqoniy Shirvoni Shoh Axsatanni Sulaymonga, malikani Bilqisga o‘zini esa Hudhudga tashbih qilgan. Baytda hudhud qushi - ziyrak, dono yo‘lboshchi ramzida namoyon bo‘lgan. Shoir Shirvonshoh Axsatanni Sulaymon (a.s) o‘xshatish orqali uning adolatli va oqil shoh bo‘lganligiga ishora qilmoqda.

Iso (a.s) Qur’oni karimda nomi kelgan va u yahudiylarning so‘ngi payg‘ambari. Iso (a.s)ning ikki laqabi bor. Biri “Masih bo‘lsa, ikkinchisi “Ruhul Quds” laqabidir. Xoqoniy Shirvoni qasidalarida nafaqat Iso (a.s)ni balki laqablari ham ko‘p tilga olinadi. Mumtoz adabiyotda Iso (a.s) obrazi xastalarni davolovchi hakim ramzida, o‘liklarni tiriltiruvchi kishi ramzdida yod etiladi. Jumladan,

عیسیٰ دله‌ها وی است داده تنم را شفا⁹³

۱۶. عازر ثانی منم یاقه از وی حیات

16. Unda hayot topgan menman ikkinchi Ozor⁹⁴,

⁹¹ خاقانی شروانی. دیوان. – تهران. ۱۳۷۵. – ص. ۲۵.

⁹² O’sha manba. – B. 104.

⁹³ خاقانی شروانی. دیوان. – تهران. ۱۳۷۵. – ص. ۲۸.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



Tanimga shifo bergen Iso uning qalbidir.

Yuridagi bayt – در صفت عشق و مدح شیخ الاسلام ناصر الدین ابراهیم“ Ishq xususida va Shayx ul-Islom Nosiriddin Ibrohim madhida” nomli qasidadan olindi. Baytda Iso (a.s) obrazi dardmandarga shifo berguvchi hakim ramzida namoyon bo‘lgan.

Shuningdek, Xoqoniy Shirvoni qasidalarida islom dinida ko‘pchilik ayollarga ibrat va hayoti misol bo‘ladigan ayollar obrazi ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Ibrohim (a.s)ning ayoli Sora, Iso (a.s)ning validasi Maryam, Firavnning ayoli Osiyo, Muhammad (s.a.v)ning ayoli Xadicha va boshqalar. Quyida ularning ayrimlari tahlilga tortildi:

از مریم پاک جان ندیده است⁹⁵

۲۹. روح القدس آن صفا کز او دید

29. Ko ‘rdi undan ki u pok Ruhul Quds,
Maryamdan pok jon ko ‘rmagan.

Yoki:

چه بود آن صور مریم وقت اصفا⁹⁶

۶۰. چه بود آن نطق عیسی وقت میلاد

60. Ne edi Isoning u nutqi milod vaqtida,
Ne edi Maryamning u suri go ‘zallik vaqtida.

Yuqoridagi bayt – در شکایت از حبس و بند و مدح عظیم الروم عز الدوله قیصر“ Xibs va asirlikdan shikoyatda va Rum azizi Azoudavla Qaysar madhida ” nomli qasidadan olindi. Baytda Maryam timsoli – poklik ramzida namoyon bo‘lgan.

تسلييم مصر و قاهره بر قهرمان اوست⁹⁷

۱۹. هست آسيه به زهد و زليخا به ملك از آنك

19. Bordir Osiyo zohidlikda-yu Zulayxo podshohlikda va undan,
Misr taslim bo ‘lishi-yu Qohira qahramonlikda.

Yoki:

کس چون تو زبیده هسان ندیده است⁹⁸

۵۲. اى ساره صفات و آسيه زهد

52. U Sora sifat-u Osiyo zohid,
Kimsa sendek go ‘zal ko ‘rmagan.

⁹⁴ Iso (a.s)ning ikkinchi nomi

⁹⁵ O’sha manba. – B. 50.

⁹⁶ O’sha manba. – B. 17.

⁹⁷ خاقانی شروانی. دیوان. – تهران. ۱۳۷۵. – ص. ۵۳.

⁹⁸ O’sha manba. – B. 51.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Yuqoridagi baytlar – др مدح صفوة الدين بنوی شروان شاه “*Shirvonshoh Safvatdin Bonu madhida*” nomli qasidadan olindi. Baytda “*Sora – sabr*”, “*Osiyo – zohid va fidokorlik*” ramzida namoyon bo‘lgan.

مال و جان бер пімбер اвшаннде است⁹⁹

۲۱. آن خدیجه است کز سعادت بخت

*21. U Xadichadir ki baxt-u saodatdan,
Mol-u nonni payg‘ambarga hadya etgan.*

Yuqoridagi bayt – др مدح صفوة الدين بنوی شروان شاه “*Shirvonshoh Safvatdin Bonu madhida*” nomli qasidadan olindi. Ma’lumki, Muhammad (s.a.v)ning ayoli tijorat bilan shug‘ullangan obro‘ -e’tiborli boy ayol bo‘lgan. Manbalarda “*Xadicha (r.a) olighthimmat, saxovatpesha va mehr shafqatli ayol sifatida tilga olinadi*”¹⁰⁰. Tahlilga tortilgan baytda Xadicha obrazi saxovatli ayol ramzida namoyon bo‘lgan.

Xoqoniy Shirvoniq qasida baytlarida birgina diniy shaxs nomini keltirish orqali u bilan bog‘liq butun voqelikni eslaydi. Shoir baytlarda diniy timsollarga talmeh, tazmin, iqtibos qilish orqali lirik qahramonga xos sifatlarga ramziy tarzda ishora qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Qasidalarning badiiy go‘zalligini ta’minlab unga zeb berib turgan vositalardan biri ramzlardir. Shoir qasida baytlarida payg‘ambar (s.a.v), anbiyo, diniy shaxs va islam tarixida hayoti ibrat bo‘ladigan ayollar nomi, laqabi, ular bilan bog‘liq tarixga talmeh va tazmin qilgan. Natijada baytlarning ta’sir darajasi oshib, ularga ramziy ma’no yuklagan. Xoqoniy Shirvoniq qasidalarida “*Yusuf – go‘zallik, oshiq va hijron*”, “*Musobilmaganni izlab topuvchi va o‘rganuvchi kishi*”, “*Xizr – xaloskor, umrboqiyilik*”, “*Sulaymon – adolatli shoh*”, “*Iso – hakim va jon ato etgvuvchi*”, “*Maryam -poklik*”, “*Sora – sabr*”, “*Osiyo – zohid*”, “*Xadicha – saxovat*” ramzida namoyon bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. خاقانی شروانی. دیوان. – تهران، ۱۳۷۵.
2. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент, 1999.
3. Ҳаққул И. Ўзбек тасаввуф шеъриятининг шаклланиши ва тарақиёти (ғоявийлик, издошлиқ, образлар олами): Дис. ... Филол. фан.док. – Тошкент, 1995.
4. Muhiddinov A. Xadicha onamizning Islom olamida tutgan o‘rni. (online maqola)

⁹⁹ O’sha manba. – B. 56.

¹⁰⁰ Muhiddinov A. Xadicha onamizning Islom olamida tutgan o‘rni. (online maqola)

<https://sammuslim.uz/oz/articles/actual/xadicha-onamizning-islom-olamida-tutgan-orni>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



<https://sammuslim.uz/oz/articles/actual/xadicha-onamizning-islom-olamida-tutgan-orni>

5. Muhiddinov A. Xadicha onamizning Islom olamida tutgan o‘rni. (online maqola)

<https://sammuslim.uz/oz/articles/actual/xadicha-onamizning-islom-olamida-tutgan-orni>

